



## DEVELOPMENT OF POLITICAL CULTURE AND IDEOLOGY IS AN IMPORTANT BASIS OF SOCIAL AND POLITICAL LIFE OF SOCIETY

**Farrukh E. Eshmamatov**

*independent researcher*

*Uzbekistan State University of World Languages  
Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** political culture, concept, political concept, social life, ideological factor, development, integration, integrative, socio-political activity, active citizen.

**Received:** 29.07.24

**Accepted:** 31.07.24

**Published:** 02.08.24

**Abstract:** This article explores the importance of developing political culture in society, strengthening its foundations, considering ideological factors, and recognizing the societal demand for political culture in socio-political life. The analysis emphasizes the social, moral, and political significance of enhancing the level of political knowledge and political culture among members of society. Additionally, the article analyzes that the ideology of society and the national ideological foundations are among the most crucial factors in socio-political life.

## SIYOSIY MADANIYAT VA MAFKURANI RIVOJLANTIRISH – JAMIYAT IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTINING MUHIM ASOSI

**Farruh E. Eshmamatov**

*mustaqil tadqiqotchi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** siyosiy madaniyat, mafkura, siyosiy mafkura, ijtimoiy hayot, mafkuraviy omil, taraqqiyot, integratsiya, integrative, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, faol fuqaro.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jamiyatda siyosiy madaniyatni rivojlanterish, uning asoslarni mustahkamlash, mafkuraviy omillarni e'tibor qaratish, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy madaniyatga bo'lgan talab nechog'lik zarurat ekanligini asoslash, jamiyat a'zolarining siyosiy bilim darajasi, siyosiy madaniyatini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, jamiyat mafkurasi, milliy mafkura negizlarini asoslanish ijtimoiy-

## РАЗВИТИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ИДЕОЛОГИИ ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНОЙ ОСНОВОЙ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

**Фаррух Э. Эшмаматов**

*независимый исследователь*

*Узбекский государственный университет мировых языков*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** политическая культура, концепция, политическая концепция, социальная жизнь, идеологический фактор, развитие, интеграция, интегративный, социополитическая деятельность, активный гражданин.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается необходимость развития политической культуры в обществе, укрепления ее основ, учет идеологических факторов и осознание общественными членами требования политической культуры в социополитической жизни. Подчеркивается социально-нравственное и политическое значение повышения уровня политической осведомленности и политической культуры членов общества. Кроме того, проанализировано, что идеология общества и национальные идеологические основы являются одними из самых важных факторов социополитической жизни.

### KIRISH

Jamiyat rivoji, islohotlar takomili, fuqarolarning davlat tuzumiga monand faoliyat olib borishi jamiyatdagi huquqiy tartibotlar bilan bir ravishda, fuqarolar siyosiy madaniyat darajasi o'sib borishini nazarda tutadi.

Ma'lumki, siyosiy madaniyat – bu insoniyat madaniyatining siyosat va siyosiy faoliyat bilan, insonning siyosiy xulq-atvori va ongi bilan bevosita bog'langan umumtan olingan madaniyat sohasi sifatida, birinchi galda, har qanday jamiyatning siyosiy intellekt darajasini ham ko'rsatib beradigan indikator hisoblanadi. Odatda siyosiy madaniyat deganda siyosiy maqsadlari, individning siyosiy xulq-atvori, siyosiy institutlarning faoliyati shakllanishiga jadal ta'sir ko'rsatadigan tarixiy, milliy va umumjahon ijtimoiy tajriba ham tushunilayotganligi siyosiy fanlar sohasida hech kimga sir emas [14, 4]. Shu jihatdan qaraganda, jamiyatda siyosiy intellektning o'sib borishi, siyosiy fanlar bilan bir qatorda ijtimoiy-sotsiologiya fanlar doirasida siyosiy kontentlarning jamiyat ijtimoiy faoliyatini bevosita bog'liqlik holatlari siyosiy madaniyat darajasining o'lchovi, deyish mumkin.

## ASOSIY QISM

Siyosiy madaniyat – insонning ijtimoiy faoliyati, ijtimoiy takomili jarayonida shakllanadigan sifat. Uning ma’no-moqiyatini jamiyatdagi ustuvor munosabatlar, usguvor qonun-qoidalar moqiyati belgilaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat muayyan shaxsning jamiyat tomonidan e’tirof etilgan ustuvor munosabatlar, an’ana va qadriyatlar hamda qonun-qoidalarga bo‘ysunish darajasi, ular asosida o‘z faoliyat ko‘nikmasi, xarakter xususiyatlari, xullas, o‘ziga xos insoniy qiyofasini shakllantira olishidir. Bundan ma’lum bo‘lmokdaki, siyosiy madaniyat shaxsning o‘z atrofidagi ijtimoiy muhitga erkin munosabatini, uning haq-huquq, nuqtai nazar, fikr bildirish borasida tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishini taqozo etadi. [14, 5]

Germaniyalik ijtimoiy soha olimi M.Veber, siyosiy madaniyatga nisbatan – siyosiy axloq terminini qo‘llaganligi va uning ham ikki turi borligini “g‘oyalar etikasi” va “mas’uliyat etikasi”ni qayd etadi. Birinchi turi, ya’ni “g‘oyalar etikasi” siyosiy ideallarni amalga oshirishga qaratilgan murosasizlikni, ikkinchisi esa jamiyatda salbiy iz qoldiradigan har qanday siyosiy qadamning barcha oqibatlarini hisobga olish va agarki, o‘zini oqlamasligiga yoki xalq ahvoliga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, undan tezda voz kechishga chaqirilgan”. [2, 39] Bu o‘rinda soha olimi siyosiy axloq kategoriyasiga mos tushadigan siyosiy madaniyatga urg‘u beradi.

XVIII asrda yashab faoliyat olib borgan yana nemis olimi I.Gerder tomonidan kiritilgunga qadar ham aslida siyosiy madaniyat katta bir siyosiy-falsafiy jarayon va tushuncha sifatida mavjud bo‘lganligini qadimgi faylasuflar – Aflatun, Arastu, Diogen, Mark Avreliy, Forobiy, Konfutsiy asarlaridan bilib olish mumkin. Ular tomonidan aynan siyosiy madaniyat termini asoslاب berilmagan bo‘lsa-da, ammo fuqarolar va jamiyat siyosiy madaniyati haqida ko‘plab falsafiy-konseptual qarashlar ilgari surilgan. Qolaversa, Yevropa uyg‘onish davri va undan oldingi davrlar vakillari bo‘lmish Makiavelli, Monteskye, Spenser, Maks Veberlar tomonidan ham mavzuga doir keng ilmiy qarashlar ishlab chiqilgan. [14, 4-5]

Jamiyat siyosiy hayotini tashkil etishda fuqarolarning siyosiy munosabatlarda ishtiroki, ularning siyosiy madaniyati, siyosiy ongi, siyosiy qadriyatlar, mentaliteti, milliy-madaniy meros orqali mujassamlashadi hamda jamiyatning tashkil etuvchi muhim jihatni hisoblanadi. Jamiyatning o‘z-o‘zini tashkil etishda. fuqarolarning siyosiy madaniyat hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda milliy-ma’naviy qadriyatlar uning negizida yotadi va o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘ladi. Fuqarolar, millat va xalqning siyosiy madaniyati qanday ko‘rinish va xususiyatlarga ega bo‘lsa, mamlakatning siyosiy hayoti, davlat va hokimiyatga munosabatlar ham unga mos tarzda namoyon bo‘lib boradi. Siyosiy madaniyatdagi o‘zgarishlar, yangi steriotiplar mamlakat siyosiy hayotiga ham o‘zining ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Siyosatshunos olim U.Muhammadiyev, “siyosiy madaniyatga fuqarolar, muayyan ijtimoiy

guruqlar, qatlamlar, elat, xalqning siyosiy hayotga bo‘lgan munosabatida amal qiladigan qoidalar, taomillar, ijtimoiy hamda siyosiy mas’ullik hissi majmui sifatida qarash mumkin. Siyosiy madaniyat milliy – ma’naviy madaniyat negizida, muayyan urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar ta’sirida shakllanadi va o‘ziga xoslik kasb etadi”. [5, 104]

Jumladan, faylasuf olim B.To‘ychiyevning fikricha, siyosiy madaniyat – ijtimoiy ong va umumiylar madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uzbek bog‘liq bo‘lgan qismi va jihatlarini qamrab oladi. [12]

Siyosiy madaniyat – muayyan shaxslar, fuqarolar, guruqlar, omma, jamoatchilik institutlari, davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, xullas, jamoat birlashmalari faoliyatida fuqarolarning ishtiroki orqali namoyon bo‘ladi. Bular siyosiy madaniyatni amalga oshiruvchi subyektlar va institutlar sifatida uning shakllanishi va qaror topishida muhim rol o‘ynaydi. [13, 41-42]

Mahalliy faylasuf olim I.Saifnazarovning ta’kidlashicha, siyosiy fanlarda siyosiy madaniyatga erishishning asosiy shartlari sifatida quyidagilardan asoslanadi:

**Birinchisi.** Demokratik muhit. Demokratik muhitning mazmun-mohiyati nimadan iborat? Demokratik muhit – bir guruh yoki bir nechta guruh yoki bir nechta qatlamlari jamoaning yagona qonun-qoidalar asosida o‘zaro kelishib, bir-birining insoniy sha’ni, haq-huquqiga ziyon yetkazmasdan yashashi. Demokratik muhit tarkibi bir qancha subyektlardan tashkil topadi: davlat, davlat idoralari, shaxs, oila, jamoat, jamoat muassasalari. Bu subyektlarning hammasi mana shu muhit doirasida qabul qilingan qonunlar asosida faoliyat yuritadi, bir-birini nazorat etadi, bir-birining faoliyatini to‘ldiradi.

**Ikkinchisi.** Erkinlik va majburiyat o‘rtasidagi muvozanatning mavjudligi. Erkinlik va majburiyatni anglash fuqaroni ham, davlatni ham, jamoatchilikni ham faqat qonun doirasida harakat etishga undaydi. Natijada qonunlar faoliyat mezonini begilaydigan asosiy qadriyatga, huquqiy tafakkur esa siyosiy madaniyatning muhim bir omiliga aylanadi.

**Uchinchisi.** Jamiyatda ko‘pfikrlik – pluralizmning asosiy ijtimoiy meyorga aylanishi. Ya’ni har bir fuqaro, har bir ijtimoiy-siyosiy kuch o‘zi tanlagan e’tiqod, o‘zi tanlagan yo‘l, o‘zi tanlagan g‘oyani targ‘ib etish va jamiyat bag‘rida kechayotgan jarayonlarga erkin munosabat bildirish imkoniga ega bo‘lmog‘n zarur. Chunki fuqaro yoki muayyan ijtimoiy-siyosiy kuch o‘z irodasi, dunyoqarashini erkin ifoda etish imkoniga ega bo‘lmasa, uning siyosiy sezgisi, siyosiy madaniyati rivojlanmaydi. [9, 45-46]

Vaholanki, siyosiy madaniyatning yuksaklishi, tom ma’noda rivojlanishi jamiyatdagagi milliy mafkuraviy qarashlar, fuqarolar siyosiy ongi va qarashlari, jamiyatda ma’naviy-axloqiy sifatlarning amal qilish darajasi hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodning davlat va jamiyatga bo‘lgan ishonchi, faollik darajasi va aol fuqarolik pozitsiyasiga bog‘liq, desak xato bo‘lmaydi.

Siyosiy madaniyat tizimli ravishda o'sib borishi jamiyatda nafaqat siyosiy ong va qarashlarning o'sib borishi, balki ishlab chiqarish, fan, ta'lim, ijtimoiy integratsiyalashvning ham jadal o'sib borishiga tayanch lokomativ rolini bajarib beradi.

Qolaversa, olim: "siyosiy madaniyat yuksalmagan joyda esa ijtimoiy fikrda ham, milliy mafkurada ham, umumiy taraqqiyotda ham olg'a siljish bo'lmaydi", deya uqtiradi.

Siyosiy madaniyatni shakllantirishning yo'l va usullari bevosita ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot vositalari bilan bog'liq. Inson oilada, maktabda, mahallada qanday tarbiya olgan bo'lsa, uning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ham shunchalik faol yoki shunchalik sust bo'ladi. Masalan, bola oiladayoq erkin, o'z fikrini mustaqil bayon eta oladigan qilib tarbiyalansa, u voyaga yetganidan keyin ham o'z fikrini dadil, mardona ayta oladigan bo'ladi. Bu jiqtadan sobiq sovet davridagi ta'lim tizimi bilan bugungi milliy ta'lim tizimini qiyoslash o'rinni bo'ladi. Ma'lumki, sobiq sovet maktablarida bolaning erkin fikrlashiga yo'l qo'yilmas, o'qituvchining aytgani-aytgan, degani-degan edi. Shuning uchun oxir-oqibatda fikran boshqalarga qaram, o'zicha mustaqil bir ishni amalga oshirolmaydigan bolalar voyaga yetar edi. Shunga munosib ravishda fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati ham o'ta sust edi. Ular o'zicha biror-bir tashabbus bilan chiqqa olmas, hayolidagi o'yfikrni erkin bayon eta olmas edi. Bu hol, tabiiyki, jamiyatdagi umumiy siyosiy madaniyat darajasiga ta'sir etardi. [9, 122-123]

O'rni kelganda shuni ham ta'kidlash lozimki, aholining siyosiy madaniyati yuksaltirish bilan bog'liq maqsadlar va vazifalar O'zbekiston ichki siyosatidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bu borada davlat va jamiyat tomonidan zalvorli ishlar amalga oshirilganligi, demokratik islohotlarning mazmun-mohiyati ham aynan ushbu yo'naliishga qaratilganligini alohida e'tirof etish joizki, bu borada bugun O'zbekiston dunyo hamjamiyati nigohida o'ta tez demokratlashib, siyosiy islohotlarni samarali amalga oshirayotgan davlat sifatida gavdalanmoqda. Zotan, demokratik islohotlar jamiyatda qabul qilingan siyosiy ong va madaniyat darajasi, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy irodasi, pozitsiyasiga hamohanglik kasb etadi.

Agar yaqin o'tmishta, istiqlolning dastlabki davrlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 90-yillardan boshlab ta'lim va taryuiya tizimida, ijtimoiy-madaniy faoliyatdan o'ziga burilish, o'sish va yuksak ezgu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar ko'rildi. Ya'ni, jamiyatning har bir a'zosiga o'z imkoniyati va faoliyat yo'naliishidan kelib chiqib islohotlarga jadal ishtirok etib, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarga singib borishi ularning huquqiy manfaatlarini ta'minlashi bilan bir qatorda, o'z navbatida, siyosiy faoliyatning ongli ishtirokchisi, siyosiy madaniyatning faol subyektiga aylanishiga olib keldi.

O'zbekiston jamiyati siyosiy madaniyati mamlakatda tarixan shakllangan va avloddan-avlodga o'tib, ularning tajribasida, siyosiy jarayonlar subyeki faoliyatida namoyon bo'ladigan hamda tadrijiylik asosida jamiyat siyosiy hayotini amalga oshirishga xizmat qiladigan nisbagani

barqaror yo‘l-yo‘riqlar, tasavvurlar, ishonch va xulq-axvor ko‘rinisharidir [13, 13-14], degan fikr ilgari suriladi.

Bugungi O‘zbekiston sharoitida milliy mustaqillik mafkurasi fuqarolar ongi va tafakkurini yangi asosda shakllantirishda g‘oyatda muhim ahamiyatga egadir. Bu mafkura ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, kelajagi buyuk davlatni barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, shaxs erki, barkamol inson, milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag‘rikenglik kabi bosh va asosiy g‘oyalarga asoslanadi hamda xalqni jipslashtirish, g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kabi maqsadlarga xizmat qiladi. [9, 116]

Siyosiy madaniyatni shakllantirishning yo‘l va usullari jamiyatning turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq. Masalan, jamiyatda azaliy barqaror bo‘lib, fuqarolarning o‘zaro munosabatlarida odillik, halollik, to‘g‘rilik hukmronlik qilsa, kishilarning haqiqatga ishonchi ortadi, ular zo‘r havas-inggiyoq bilan yashashga intiladi. Vatanimiz istiqlolidan keyin yurtimizda aynan ana shunday hol ko‘zga tashlandi. Odamlar yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlariga astoydil kirishib ketdi, tadbirkorlik, ishbilarmonlik avj oldi. Odamlarning o‘z turmush sharoitlarini yaxshilash borasidagi bunday faolligi ularning siyosiy faolligi belgisidir. Chunki o‘z taqdiri, oilasi takdiriga beparvo bo‘lmagan odam Vatani va xalqi takdiriga ham loqayd qaramaydi. [9, 123]

Mahalliy soha olimi A.Haydarov: “Siyosiy madaniyat xalqning salohiyatini namoyish etadigan qadriyatga aylanishi uchun milliy g‘oya darkor. Milliy g‘oya – mamlakat xalqini olg‘a yetaklovchi ezgu fikrlar majmui. Milliy g‘oyada siyosiy madaniyatga xos xususiyatlar uning negizida yotadi. Bu milliy istiqlol g‘oyasi tayanadigan milliy-ma’naviy qadriyatlar orqali jamiyatning siyosiy madaniyatining ham namoyon bo‘lishida asosiy tayanch, negizi bo‘lib hisoblanadi. Ularning maqsad va manfaatlarini birlashtirib turadigan bosh g‘oya bo‘ladi. Bu g‘oya mamlakatda demokratik jamiyat ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish maqsadlari bilan mushtarak bo‘lib, siyosiy madaniyati yuqori bo‘lgan har bir kishi o‘z ish faoliyati, siyosiy institutlarga bo‘lgan munosabati, o‘z manfaatlari bilan boshqa ijtimoiy guruhal manfaatlarini uyg‘un ko‘rishi hamda muvofiqlashtirishda siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo‘ladi” [13, 146], deydi. Shu o‘rinda bir omilni sanab o‘tish kerak bo‘ladi, bu ham bo‘lsa, milliy-ma’naviy qadriyatlarga tayanib ijtimoiy-siyosiy faoliyatni tashkil etish va tizimli olib borish siyosiy madaniyatning milliy mansubligini, jamiyatga qabul qilinish darajasini ham ko‘rsatib beradi.

Siyosiy madaniyat – ijtimoiy-siyosiy va siyosiy qadriyatlarni saqlash, amalga oshirish, yetkazish va mustahkamlash, barqaror siyosiy munosabatlarni amalga oshirish usulidir. U siyosiy faoliyatning shakli va usuli sifatida hamda insonlarning siyosiy munosabatlari qonun-qoidalari sifatida namoyon bo‘ladi. Davlat organlari belgilab bergen norma (meyor)larga amal qilish, o‘sha meyorlar doirasida ish tutish ham siyosiy madaniyat asosida amalga oshiriladi. [7]

Siyosiy madaniyatning jamiyatda o‘z-o‘zini tashkil etuvchi tizim sifatida namoyon bo‘lishi, uning asosi xalq erki, xohish-irodasi bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Siyosiy madaniyat, fuqarolarning siyosatni tushunishi, uni anglab yetishidagina emas, ko‘proq unga bo‘lgan munosabatda, amal qilish va amalga oshirishning tamoyillarida ularning fe'l-atvor ko‘rinishlari, hatti-harakatlari meyorlarining siyosat bilan muvofiq kelish yoki kelmaslik holatlari orqali o‘z ifodasini topadi. [13, 49] Bu o‘rinda ham soha vakilining fikriga qo‘shilish o‘rinli, negaki, fuqarolarning siyosatni tushunish va uni qabul qilish holati jamiyatdagi mavjud tarbir-tamoyillar va siyosiy talablarga mos bo‘lsa siyosiy madaniyatning amalga oshishi ham oson kechadi.

Siyosiy madaniyat, avvalo, har bir xalh yoki millatning milliy-ma’naviy qadriyatlari orqali siyosiy hayotda, jamiyatning siyosiy tizimida aks etadi, deb hisoblanadi. Shunda mamlakat siyosiy hayotini siyosiy madaniyat bilan munosabatda o‘rganganda ikki xil holatga duch kelish mumkin:

siyosiy hayotda jamiyatning siyosiy madaniyatini milliy-manaviy qadriyatlар bilan mos tarzda ifodalanishi;

siyosiy madaniyatni milliy-ma’naviy qadriyatlardan begonalashganlik holati (ya’ni, unga tayanmaganligi)ni ijtimoiy hayotda ko‘rish mumkinligi qayd etiladi. [13, 17]

Bugungi kundagi asosiy, muhim narsa – siyosiy madaniyatni yanada oshirish sohasidagi vazifalarimizni chuqur va ongli ravishda anglash, idrok etish, avvalo aniq maqsad va gap nimada ekanligini bilib olishdadir. Chunki xalqimiz amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan, o‘zining kelajagi buyuk davlatini qurish, huzur-halovatini ta’minlaydigan adolatli jamiyat yaratishda islohotlarning ulug‘vor mohiyatini ruhan anglay ololmasa, ko‘zlangan maqsadimizga erishish amrimahol. Buning uchun kun sayin sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib mamlakat va xalq manfaatlari yo‘lida birlashish, barcha imkoniyatlardan aql-idrok bilan foydalanish, loqaydlik kayfiyatini yengish talab etiladi. [13, 64] Hech kimga sir emaski, bugun global miqyosda ijtimoiy-mafkuraviy jarayonlar jadallahshmoqda, yangicha qarasha va talablar o‘sib bormoqda, shunga monand axborot va media olamida ham ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy va ishlab chiqarish borasidagi zamonaviy kontentlar tezkor kirib kelmoqda. Bunday jarayonda siyosiy madaniyatning rivojlanish darjasini jamiyat mafkurasiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘z o‘rnida siyosat mafkuraga tayanadi.

Siyosatning mafkuraga tayanishining sababi – mafkuraning jamiyat ma’naviy kayfiyatini, orzu-umidlarini, maqsad va manfaatlarini ifodalovchi g‘oyaviy dastur ekanlididadir. Bu borada siyosiy mafkura alohida o‘rin tutadi. Chunki u huquqiy mafkura kabi demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yetakchi omillardan biri hisoblanadi. Siyosiy mafkurasiz biror-bir siyosiy harakat bo‘lmaydi. [6, 239]

Mafkura, avvalo, xalq va Vatan manfaatlarini ifoda etadi hamda jamiyat bag‘ridagi barcha kuchlarni ana shu manfaatlar atrofida birlashtirishni ko‘zda tutadi. Aynan mana shu jihatni bilan u

yangicha siyosiy madaniyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Chunki, ma'lumki, hamma o'z fikri va qarashiga ega bo'lgan, o'z fikri va qarashini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lgan demokratik jamiyat sharoitida har bir fuqaro, har bir toifa, har bir siyosiy guruh o'z mafkuraviy dasturiga, qarashlariga ega bo'ladi. Bu – tabiiy, deydi faylasuf olim I.Saifnazarov. Demak, guruh, xalq va jamiyatning muayyan mafkuraviy dasturlari o'z ko'lami, yo'nalishi va amalga oshiradigan kognetivligiga qarab siyosiy mafkurani yuzaga chiqishiga omilkorlik kasb etadi. Qolaversa, milliy mafkuraga asoslangan chora-tadbirlar va milliy dasturlar jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga va fuqarolarning ijtimoiy faollik ko'rsatkichiga o'sishiga xizmat qiladi.

Mafkura oddiy qilib aytganda, muayyan xalq ijtimoiy guruhining manfaatlarini, maqsad, g'oya va qadriyatlarini e'tirof etuvchi turli xil nuqtai nazarlar hamda e'tiqodlar majmui ham demakdir. Bu jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar va fikr-g'oyalarda ifodalangan umummanfaat va maqsadlar majmuidir. [13, 59]

Demak, siyosiy mafkura bu – biror-bir siyosiy, ijtimoiy tashkilotning g'oyaviy tizimi bo'lib, jamiyatni rivojlantirishga va ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'ladi. ...Siyosiy mafkura ma'lum bir guruhning siyosiy g'oyalarini ilgari surish ekanligini ta'kidlab o'tadi talqiqotchi G.Sa'diyeva.

Tadqiqot jarayonida, mavzuga oid nazariy qarashlarni, soha vakillarining fikr-mulohazalarini o'rjanib chiqish jarayonida shu jihat oydinlashdiki, har qanday jamiyatning rivojlani, ijtimoiy o'zgarishlarga tayyorligi va fuqarolarning manfaatlarining davlat manfaatlariga mos kelishi jamiyatdagi mavjud siyosiyo mafkuraning amalga qilishiga bog'liq, deyish mumkin.

Siyosatshunos G.Sa'diyeva siyosiy mafkura:

- siyosat subyektlarini qadriyatlar tizimiga va ma'lum bir guruhlarning ijtimoiy manfaatlariga yo'naltiradi;
- mafkura o'z tarafdarlariga ma'lum bir siyosiy faoliyat uchun ko'rsatma beradi;
- mafkura shaxsiy manfaatlarni emas, balki ma'lum bir ijtimoiy guruhn ni birlashtiruvchi vazifalarni amalga oshiradi [10, 58], deya ta'kidlaydi.

Axborot makoni kengayib borgan sari tashqi mafkuraviy xatarlar va tazyiqlar ham urchib, haddan tashqari ta'sir darajasiga kengayib borishiga jamiyatlaridagi yaqin tarix va ijtimoiy-siyosiy tuzumlardan bilib olish mushkul emas. Bunday holatda faqat fuqarolar ijtimoiy faolligi, huquqiy savodxonligi va jamiyat siyosiy madaniyatining amal qilish darjasini orqali tanqidiy baho berish va qarshi siyosiy chorralarni qo'llash orqali ijobiy xarakter kasb etishi mumkin.

Hozirgi davr fuqarolar siyosiy ongi va siyosiy madaniyatiga mafkuraviy poligonlar ta'siri tobora kuchayib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Bugungi axborotlashgan dunyoda siyosiy voqelikni yoritishga qaratilgan axborotlarning barchasini ham obyektiv, ilmiy asosga ega, deb

bo‘lmaydi. Bunday axborotlar shaxsda nosog‘lom siyosiy e’tiqodni vujudga keltiradi. Fuqarodagi nosog‘lom siyosiy e’tiqod faqatgina uning siyosiy hissiyotini junbushga keltirishga asos bo‘ladi. Mafkuraning obyekti inson ongi bo‘lib, u fuqaroga voqelikni bilishi, baholashi va faoliyat yuritishida katta ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida fuqaroda muayyan yo‘nalish bo‘yicha ruhiy holat va e’tiqod vujudga keladi. Siyosiy madaniyat bilan mafkura o‘rtasidagi o‘zaro munosabat aynan shu jarayon bo‘yicha kechadi. [4, 21] Bizning nazarimizda, mafkura siyosiy xulq-atvorni rag‘batlantirishi kerak, siyosiy ongning o‘sib borishi mafkuraning ijobiy xarakter kasb etishini nazarda tutadi. Jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma’rifiy regulyator vazifasi mafkura o‘tab bergen taqdirda fuqarolarning siyosiy madaniyati ham integrativ o‘sib boradi.

Aksariyat xorijlik olimlar mafkurani yirik ijtimoiy guruqlar – sinflar, millatlar, partiyalar va boshqalarning manfaatlari, maqsad va niyatlarini ifodalovchi tizimlashtirilgan g‘oyalar majmui deb ta’riflaydilar. Mafkura korporativ ongning bir turi sifatida siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotga guruh nuqtai nazarini aks ettiradi. Omma ongiga jamiyatning hozirgi va istiqbolli rivojlanishini baholashning tegishli mezonlarini joriy etishni nazarda tutadi. Har qanday mafkura siyosiy xarakterga ega, lekin siyosiy mafkura tushunchasi o‘ziga xos ma’noda – ratsional (qiymat motivatsiyasini) tavsiflash uchun qo‘llaniladi. [11, 13] Agar jamiyatning hozirgi va istiqbolli rivojlanishini prognoz qilishning siyosiy ahamiyatini baholaydigan bo‘lsak, fuqarolar mafkuraviy va madaniy bilimlarining takomillashib, o‘sib borish darajasi ham ijtimoiy mezon sifatida baholanishi mumkin.

Jamiyatda milliy manfaatlar ma’navi-mafkuraviy qarashlarga mos bo‘lgan taqdirda, siyosiy tafakkur va siyosiy madaniyat shakllanishi va o‘sib borishi, jamiyatda qabul qilingan normalarga, axloqiy qadriyatlarga integratsiyalashuvi ham tizimli ravishda rivojlanadi.

Siyosiy mafkura shakllanishining to‘rtta asosiy modeli mavjud. Birinchisi, kondensatsiya modeli. Bu modelning mexanizmi shundan iboratki, ommaviy ong bug‘lanishining o‘ziga xos kondensatsiyasi natijasida unga xos bo‘lgan g‘oyalar mafkuraviy tuzilmalarga aylanadi (masalan, kasaba uyushmalari, ekologiya, feminizm mafkuralari). Ikkinci model – integrativ. U mavjud mafkuraviy (siyosiy harakatlar (masalan, neoliberalizm, neokonservativizm)) sintezi, turli g‘oyalar va vakilliklarning sintezi, yaqinlashishi bilan tavsiflanadi. Uchinchi model divergent. Bunda yangi siyosiy mafkuraning shakllanishi parchalanish, mavjud mafkuraning bo‘linishi natijasida sodir bo‘ladi. To‘rtinchi model mafkuralarning jonlanishi bo‘lib, buning natijasida eski g‘oyalarga qaytish, ularning o‘zgartirilgan shaklda tiklanish (masalan, marksizm, konservativizm va boshqalarning kelib chiqishiga qaytishga urinishlar.) Shu bilan birga, ushbu modellarni bilish mafkuraviy oqimlarning paydo bo‘lish mexanizmini o‘rganishga yordam beradi. [11, 14]

Mafkuraviy omilning ta'siri ijtimoiy motivatsiya darajasining va fuqarolik ko'rsatkichlarining o'sishiga olib kelishi mumkin. Ya'ni, u demokratiya sharoitida hukumatga ta'sir ko'rsatuvchi yordamchi axloqiy omilga aylanadi.

Siyosiy mafkura siyosiy xulq-atvorning maqsadli va g'oyaviy yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lganligi uchun uning faoliyat ko'rsatishning quyidagi darajalari ajratiladi. Birinchisi nazariy va konseptualdir. U sinf, qatlam, millat manfaatlari va ideallarini ochib beruvchi asosiy qoidalarni shakllantiradi. Ikkinci – dasturiy siyosiy. Bu yerda ijtimoiy (falsafiy tamoyillar va ideallar) siyosiy qarorlar qabul qilish va fuqarolarning siyosiy xulq-atvorini rag'batlantirishning meyoriy asosini tashkil etuvchi dasturlar, shiorlar va talablarga aylantiriladi. Uchinchisi aktuallashtiriladi. U fuqarolarning ma'lum bir mafkuraning maqsad va tamoyillarini o'zlashtirganlik darjasи va ularni u yoki bu shaklda siyosiy ishtirokda amalga oshirishga o'z ahamiyatini topadi. [11, 17]

Tadqiqotchi E.Mallayeva, milliy mafkura asosida fuqarolarda shakllangan "ma'naviy immunitet" (siyosiy ma'noda rivojlangan siyosiy madaniyat) jamiyat barqarorligi va tahdidbardoshligini ta'minlashda tashqi (xalqaro) ta'sirlarga javob beruvchi qism vazifasini bajarishi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda siyosiy madaniyatga bo'lgan ehtiyoj doimo ongli ravishda anglanavermasligi, bu holat ikki tomon xarakatining natijasi bo'lib, u fuqaro + davlat munosabati asosida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. [4, 20] Shu o'rinda yuqorida fikrga shunday qo'shimcha qilish mumkinki, ijtimoiy-siyosiy hayotda siyosiy madaniyat "manfaat+moslashuvchanlik+natijaga qaratilgan ijtimoiy mezonlar" tarzida yuzaga kelishi va rivojlanib boirishini ta'kidlash lozim.

Milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarixiy tajribani o'rganish ham dolzarb masaladir. Bu vazifa bajarilsa, tarixiy vorisiylik saqlanib qolishi, tarixiy va bugungi amaliyotdagи mafkuralarni xatosini takrorlamaslik imkoniyati vujudga keladi. Bu harakatlar natijasida milliy mafkura strukturaviy jihatdan mukammal va o'ta raqobatdosh mafkura sifatida shakllanib boradi. [4, 16] Tarixdan chiqarilgan saboqlar milliy mafkurani rivojlantirish va bu orqali jamiyatda yangicha qarash va milliy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlagan holda siyosiy madaniyatni ijtimoiy-siyosiy jarayonlar nuqtai nazaridan isloh qilish, tizimlashtirish va institutsional jihatdan muvoqiflashtirib borish zaruratga aylanib boradi.

Soha olimi X.Jo'maniyozovning ta'kidlashicha, bugungi kunda ma'naviy-mafkuraviy salohiyat:birinchidan, milliy davlat mustaqilligining mohiyatini aks ettirishi; ikkinchidan, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi davlatning strategik vazifalarni qamrab olishi; uchinchidan, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda kishilarining yaratug'chanlnk, bunyodkorlik faoliyatiga faollik baxsh etishi; to'rtinchidan, kishilar dunyoqarashining sifatiy o'zgarishlarga katta xissa qo'shishi; beshinchidan, O'zbekistonda siyosiy barqarorlik va milliy birlikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shishi; oltinchidan, xalqimizning boy

madaniy merosini, milliy qadriyatlarini va an'analarining tiklanishiga milliy o'zligimizni anglashga, milliy g'urur va iftixorni mustahkamlashda o'z hissasini qo'shishi; yettingchidan, milliy manfaatlarga xizmat qilishi; sakkizinchidan, kelajagimiz poydevor bo'lishi, yoshlar tarbiyasida, ularning milliy va umuminsoniy kadriyatlarni o'zlashtirib olishlarida, o'z xalqining, Vatanning jonkuyari bo'lib yetishishlarila muhim o'rinni tutishi; to'qqizinchidan, jamiyatdagi barqarorlikka tahdid soluvchi diniy-ekstremistik kayfiyatdagi g'oyalardan ustun bo'lishi va ularning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslig'i; o'ninchidan, demokratik, huquqiy davlatchilikningshakllantirish jarayonida xalqimiz erishayotgan yutuqlarni faol ravishda targ'ib etishi kabi funksiyalarni bajarishi lozim. [3, 14] Shu o'rinda bir jihatga oydinlik kiritib ketish lozim bo'ladi, nega aynan mazkur o'n muhim talab zaruratga aylanmoqda. Buning asosi, negizi bir omilga – faol ma'naviy-axloqiy asoslarni o'ziga o'zlashtirgan ijtimoiy fuqaroni tarbiyalash orqali jamiyatda siyosiy madaniyat va mafkurani tizimlashtirib borish faktoriga ham bevosita bog'liq, degani xulosani yuzaga chiqaradi.

Darhaqiqat, jamiyat mafkurasi jamiyatning umumiyligi manfaatlarni o'zida aks ettiradi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning o'zgarishi bilan mafkuraviy jarayon mohiyatining o'zgarishi ham talab etiladi. Ijtimoiy taraqqiyot davomida jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro manfaatlari o'zgarayotgan hozirgi davrda, bu jarayon mafkuraviy munosabatlarni ham o'zida aks ettirib bormoqda. [8, 22]

Jamiyat mafkurasi to'la ma'noda, millatnint ongli ijtimoiy faoliyatiga aylanadigan bo'lsa, nafaqat milliy manfaatlarni, shu bilan birgalikda, jamiyat taraqqiyotining muhim omili – umuminsoniy g'oyalarni xam to'la idrok etadi. Bu, eng avvalo muayyan bir makonda yashab kelayotgan xalqlar manfaatlarining daxlsizligini ta'minlashni hamda umummilliy mafkura uchun bir butun bo'lib uyushishni, birlashishni anglatadi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotida ma'lum bir funksiyalarni bajarib, aynan tarbiyaviy funksiyasi siyosiy madaniyatda markaziy o'rindlardan birini egallaydi. Yuksak maqsadlar, qadriyatlar, normalar asosida shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish uning mohiyatini tashkil etadi. Bizning jamiyatimizda bu funksiya insonparvar, demokratik jamiyatga xos bo'lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan. U siyosiy faollikni, fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalaydi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. [1, 227-228]

Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura ustiga qurilgan hukumatlar jamiyatga ta'sir ko'rsatish va o'z siyosati ustunligiga erishish maqsadida, avvalo, axloqiy meyorlarga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Jamiyat siyosiy sohasida tartib o'rnatish va uni amalga oshirishda eng maqbul va samarali usul mafkuraviy qarashlarga tayanishdir. Mafkura esa, g'oya va e'tiqodlar majmui sifatida siyosiy faoliyatda qo'yilgan qadamlarni ratsionallashtirish va oqlash imkonini beradi. [10, 69] Mazkur fikrga qo'shilgan holda yana bir qarashni ta'kidlab

o‘tish o‘rinli deb o‘ylaymiz, xususan, mafkuraning ta’siri, ko‘lami, siyosiy ahamiyat kasb etib borishi jamiyat a’zolarining xulq-atvori, axloqiy bilimi va eng muhim milliy ma’naviy mansublik omiliga ham bog‘liq bo‘lganda ravshanlashib boradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugun siyosiy madaniyat jamiyat rivoji, fuqarolar manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy faolligini yuzaga chmqrishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda jamiyatda siyosiy mafkura ham o‘ziga bo‘lgan ahamiyat kasb etadi. Negaki, siyosiy mafkuraning amal qilish darajasi ijtimoiy-siyosiy faoliyatning tizimli va sohalar kesimida intenvis va integrativ ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirishga ko‘mak beradi.

Bu xususda, ya’ni jamiyatda siyosiy madaniyat va siyosiy mavkuraning keng amal qilishini ta’minalash maqsadida quyidagi tavsiyalarni ham ilgari surish muhim bo‘ladi:

Birinchidan, aholining keng ommasi uchun ijtimoiy jarayonlarni tashabbuskorlarini kengaytirish va fuqarolar mas’ulligini oshirishga qaratilgan «Ijtimoiy-siyosiy madaniyat kodeksi»ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etilishini yo‘lga qo‘yish;

Ikkinchidan, umumta’lim muassasalari bitiruvchilari, professional ta’lim o‘quvchilari va nomutaxassislik oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun siyosiy-ma’naviy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ommabop risolalarni tizimli ravishda muntazam nashr etib borish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алиев Б., Эргашев И. ва бошқ. Политология. –Т.: ТДИУ, 2010. –Б. 227-228.
2. Вебер М. О буржуазной демократии в России. // Социологические исследования. 1992. -№3. -С. 39.
3. Жўманиёзов Х.С. Мустақиллик ва миллий ривожланишнинг маънавий-мафкуравий салоҳиятини шакллантириш муаммолари. Сиё.фан.ном. ...дисс.автореф. -Т. 2000. -Б. 14.
4. Маллаева Э.М. Фуқаролар сиёсий маданиятини ривожлантиришнинг мафкуравий омиллари. Сиё.фан.бўй.фал.докт.(PhD) дисс.автореф. -Т.: 2020. –Б. 21.
5. Мухаммадиев У.Н. Ўзбекистонда сиёсий маданият ва миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси. Дисс... сиё.фан.ном., -Т.: 2002. -104-б.
6. Одилқориев Х.Т, Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. –Т.: «Ўқитувчи” НМИУ, 2008. –Б. 239.
7. Политический процесс: основные аспекты и способы анализа. –М., 2001. –С. 136.
8. Расулов Ҳ.М. Ўзбекистонда жамият мафкураси: миллий-тарихий негизлари ва шаклланиши. Сиё.фан.ном. ...дисс.автореф. -Т. 2001. -Б. 22.

9. Саифназаров И.С. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. -Т.: Шарқ, 2001. –Б. 37.
10. Саъдиева Г.О. Давлат хизматчиси маънавий қиёфаси шаклланишида сиёсий маданият ва мағкуранинг таъсири. Сиёс.фан.бўй.фалс.док. (PhD) ...дисс. -Т. 2021. -Б. 68.
11. Сирота Н.М. Идеология и политика: Учеб. пособие для студентов вузов / Н.М.Сирота. –М.: Аспект Пресс, 2011. –С. 13.
12. Тўйчиев Б.Т. Политическая культура и демократизация общества / монография. -Т., УЗМУ. 2009.
13. Ҳайдаров А.Ҳ. Ўзбекистон жамияти сиёсий маданиятида миллий-маънавий қадриятларнинг ўрни./ Сиё.фан. ном. ...дисс. -Т. 2005. – 168 б. -Б. 41-42.
14. Яхшибаев Ш. Сиёсий маданият ва унинг концептуал-назарий муаммолари. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7837383>. -Б. 4.